



ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPON – O'ZBEK MILLIY UYG'ONISH ADABIYOTINING YORQIN NAMOYONDASI

Ne'matov Shoxrux
Ibodullo o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya

Maqolada Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lponning hayoti, ijodiy faoliyati va o'zbek milliy uyg'onish adabiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Adibning she'riyati, dramaturgiyasi hamda publitsistik merosi asosida uning milliy tafakkur, erkinlik va istiqlol g'oyalarini shakllantirishdagi hissasi yoritiladi. Shuningdek, Cho'lpon ijodining badiiy-estetik xususiyatlari va jadid adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar

Cho'lpon, milliy uyg'onish, jadid adabiyoti, erkinlik g'oyasi, o'zbek she'riyati, dramaturgiya, ma'naviy meros.

Kirish.

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar milliy tafakkur va adabiyot rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bu davr o'zbek adabiyotida milliy uyg'onish bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Mazkur jarayonda jadid adabiyoti namoyandalari xalqni ilm-ma'rifatga, ozodlik va taraqqiyot sari da'vat etdilar. Ana shunday buyuk siymolardan biri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpondir.

Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqdi. U milliy ruh, erkinlik va istiqlol g'oyalarini badiiy ifodalash orqali o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onishiga xizmat qildi. Adibning asarlari nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ham ega bo'ldi.

Cho'lpon hayoti va Ilmiy-adabiy merosi

Ijodkorning hayot yo'liga nazar soladigan bo'lsak, «Cho'lpon» taxallusi bilan shuhrat qozongan Abdulhamid Sulaymon 1897-yilda Andijon shahrining Qatortarak mahallasida dunyoga keldi. Otasi Sulaymon Mulla Muhammadyunus o'g'li bazzoz Bazzoz — gazlamafurush degani. Taxmin qilish mumkinki, oila o'ziga to'q bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Sulaymon bazzoz zamonasining ko'zi ochiq ziyolilaridan bo'lib, «Rasvo» taxallusi bilan she'rlar yozgan, hatto devon tartib qilgan. O'g'li Cho'lpon bilan she'riy yozishmalari bo'lganini naql qiladilar. Bundan tashqari bo'lajak adib xonadonida zamonning olim-u fozillari tez-tez bo'lib turganlar. Ijodkor ijodining ilk kurtaklari haqida to'xtaladigan bo'lsak, Cho'lponning matbuotdagi dastlabki she'r va maqolalari 1914- yildan boshlab ko'rinish beradi. O'sha davrdagi mashhur «Sadoyi Turkiston» gazetasi 1914-yil 14-aprel sonida «15 yashar Abdulhamid afandi»ning

«Turkistonli qardoshlarimizga» sheʼrini mushtariylariga havola etar ekan, oʻquvchilarni «yoshgina qalbi ila yorugʻlik va ilm-maorif yoʻliga boshlagan»idan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi. Mutaxassislarining aniqlashlaricha, «Sadoyi Turkiston»ning 1914-yil 29-aprel sonida chop etilgan «Qurboni jaholat» hikoyasi Choʻlponning birinchi nasriy asaridir. Dastlabki asarlari «Abdulhamid Sulaymon», «Abdulhamid Sulaymoniy» imzolari bilan bosildi. Keyinchalik, «Qalandar», «Mirzaqalandar» va nihoyat, «Choʻlpon» taxalluslari ostida ijod qildi. Va adabiyotimiz tarixiga Choʻlpon nomi bilan kirdi. Uning «Kecha va Kunduz» romani (1936) romani oʻzbek adabiyotining ilk realist romanlaridan biri hisoblanadi. ushbu asarda zebi timsolida oʻzbek xalqining chor mustabidligi davridagi hayoti va ijtimoiy fojealari maxorat bilan tasvirlangan.

Sheʼriy merosi va badiiy xususiyatlari

Choʻlpon sheʼriyati oʻzbek adabiyotida yangicha poetik tafakkurni shakllantirdi. Uning «Uygʻonish», «Turkistonli qardoshlarimizga», «Buloqlar» kabi sheʼrlarida milliy oʻzlikni anglash, erkinlik va istiqloq gʻoyalari markaziy oʻrin tutadi. Uning dastlabki sheʼrlari milliy ozodlik, maʼrifat va insoniy qadriyatlarni ulugʻlashga bagʻishlangan. Shoir sheʼriyatida xalq dardi, erk va hurriyat istagi asosiy mavzu boʻlib xizmat qiladi.

Uning dastlabki sheʼrlari milliy ozodlik, maʼrifat va insoniy qadriyatlarni ulugʻlashga bagʻishlangan. Shoir sheʼriyatida xalq dardi, erk va hurriyat istagi asosiy mavzu boʻlib xizmat qiladi. Professor Ozod Sharafiddinov Choʻlponning 1924-yilda Moskvada Maorif uyi qoshidagi yosh oʻzbek artistlarining mahoratini oshirish uchun tashkil qilingan dramatik studiyaning adabiy yetakchisi va rahbarlaridan biri boʻlganini maʼlum qiladi. Choʻlponning 1922-yili «Uygʻonish», 1923-yili «Buloqlar» 1926-yili «Tong sirlari» kabi yirik sheʼriy toʻplamlari nashr etilgan. Choʻlpon ocherknavis va publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. 1914-1917-yillarda «Bahor ovullari», «Oʻsh», «Vatanimiz Turkistonda temir yoʻllar» hamda «Doʻxtir Muhammadiyor» asarlarida madaniyat va maʼrifat targʻibotchisi sifatida maydonga chiqdi. Oktyabr toʻntarishidan keyingi 1920-1924-yillarda hayotda sodir boʻlayotgan xush va noxush oʻzgarishlarni qalamga oldi. Uniig «Yoʻlda bir kunduz», «Yoʻlda bir kecha», «Sharq poyezdi keldi», «Sharq uygʻongan», «Chimkent», «Quturgan mustamlakachilar», «Yoʻl esdaligi» singari oʻnlab sayohat ocherklari va publitsistik maqolalari yaratildi.

Choʻlpon faoliyati davomida koʻplab asarlar yaratdi. Uning Turkkiton matbuotida «Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik», «Vatanimiz Turkistonda temir yoʻllar», «Adabiyot nadir?», «Ruhimiz oʻlmasin!», «Chetdagi talabalarga yordam», «Gullaysan maorif!», «Koʻmak» ishlari, «Moskvadagi dram studiya», «Mirxoʻld teatri», «Abo Muslim», «Sharq uygʻongan», «Quturgan mustamlakachilar», «Yoʻl esdaligi» kabi maqolalari nashr etildi. U «Qurboni jaholat», «Doʻxtir Muhammadiyor» singari hikoyalari bilan xalq orasidagi illatlar va muammolarni ochib berdi. Shu bilan birga u «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda», «Qor qoʻynida lola» kabi hikoyalarni ham yaratdi..

Dramaturgiya va nasrdagi faoliyati

Choʻlpon dramaturg sifatida ham samarali ijod qildi. Oʻzbek dramaturgiyasining rivojiga ulkan hissa qoʻshgan Abdulhamid Choʻlpon ijodining dastlabdi yillaridanoq

dramalar yoza boshlagan. Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, 1914 yildayoq, ya'ni 16-17 yoshlarida "Boy" nomli drama yozgan. Lekin bizgacha bu asar yetib kelmagan. Bu drama haqida qaysi hujjatlarda aytib o'tilgani ham noma'lum. Shekspir, Gossi, Goldoni, Lope de Vega, Molyer kabi dramaturglar maktabida tahsil olgan, Thakur, Husayin Jovid kabi san'atkorlarning ijodiy laboratoriyasini o'rgangan Cho'lpon 20-yillarda ulkan shuhrat qozongan "Yorqinoy" dramasi yaratdi va 7 yil ichida 3 marta sahnalashtirildi. Dramaning markazida Yorqin va Po'lat munosabatlari tursa-da, asar ishq muhabbat haqida emas. Yorqinoyning sevgisi katta psixologik muammolarni qo'yishda bir vosita, xolos. Insoniy burch va tuyg'u o'rtasidagi doimiy kurashi qahramonlar xarakterida yoritib berilgan. Cho'lpon ocherknavis va publitsist sifatida ham barakali ijod qildi. 1914-1917-yillarda «Bahor ovullari», «O'sh», «Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar» hamda «Do'xtir Muhammadiyor» asarlarida madaniyat va ma'rifat targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. Oktyabr to'ntarishidan keyingi 1920-1924-yillarda hayotda sodir bo'layotgan xush va noxush o'zgarishlarni qalamga oldi. Uniig «Yo'lda bir kunduz», «Yo'lda bir kecha», «Sharq poyezdi keldi», «Sharq uyg'ongan», «Chimkent», «Quturgan mustamlakachilar», «Yo'l esdaligi» singari o'nlab sayohat ocherklari va publitsistik maqolalari yaratildi.

Cho'lpon jadid adabiyotining yetuk vakillaridan biri sifatida milliy uyg'onish jarayonida muhim rol o'ynadi. U o'z ijodi orqali xalqni jaholat va mustamlakachilik zulmidan qutulishga, ilm-ma'rifat sari intilishga da'vat etdi.

Biroq 1937–1938 yillardagi qatag'on siyosati natijasida ko'plab jadid ziyolilari qatori Cho'lpon ham repressiya qurboniga aylandi. 1938 yilda u nohaq ayblovlar bilan otib tashlandi. Mustaqillik yillarida adib nomi oqlanib, uning boy merosi xalqimizga qaytarildi.

Xulosa

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'zbek milliy uyg'onish adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biridir. Uning she'riyati, nasriy va dramatik asarlari milliy tafakkur va ma'naviy yuksalish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. Cho'lpon ijodi o'zbek adabiyotida erkinlik, istiqlol va inson qadr-qimmatini ulug'lovchi g'oyalarni mustahkamladi. Cho'lpon o'z asarlarida xalqning dardi va ma'naviy qiyofasini ochiq-oydin yoritib bergan. Cho'lpon turkiston jadidchilik harakatining eng yoshi bo'lishuga qaramasdan yoshlarni ilmi, ma'rifatli qilishga hamda mustabid tuzumdan xalos bo'lishga qaratgan.

Bugungi kunda Cho'lpon merosi yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash, ma'naviy qadriyatlarni asrash va rivojlantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Cho'lpon A. Asarlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Karimov N. Jadid adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
3. Qosimov B. O'zbek adabiyoti tarixi (XX asr boshi). – Toshkent: Fan, 2006.
4. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2000–2005.
5. Sharafiddinov O. Cho'lponni anglash. T.: Xazina, 1994.
6. Karimov N. Cho'lpon. T.: Fan, 1991.

7. Cho‘lponning badiiy olami (to‘plam). Toshkent: Fan, 1994.
8. Murodov J.Cholpon haqida. Toshkent: Ohangaron Hayoti Gazetasi, 2014